

GENITAL PROLAPSI RETSIDIVI VA ASORATINI XIRURGIK DAVOLASH.

Zoirova Nilufar Asliddinovna

SamDTU 2- son akusherlik va ginekalogiya kafedrasи

Annatasiya: Janoq a‘zolari prolapsining xozirgi kunda davolashning eng radikal davolash usuli bu- jarroxlik amaliyoti xisoblanib xozirgi kunda jarroxlik amaliyati va ularning modifikasiyasini xisoblaganda, xozirgi kunda 300 dan ortiq jarroxlik amaliyotlari mavjudligi kuplab adabiyotlarda keltirilgan. Jinsiya azolar prolapsi xozirgi kunda ayollarda xayot sifatini va ijtimoiy xayortda uziga xos salbiy tasir qilib kelmoqda. Xozirgi kunda ayollarning xar 5tasidan 3tasi qbirlamchi jar[lik amaliyotidan keyin qayta jarroxlik amaliyotini o`tkazayotgani mavzuning bugunga kelib dolzarbligini anglatadi.

Kalit so`zlar: Jinsiya azolar prolapsi, bachadon tushishi, POP-Q, rektoselle, sistoselle, Qin old va orqa devori tushishi.

Mavzuning dolzarbliji. Jinsiy a‘zolar prolapsi xozirgi kunda nafaqat akusher ginekologlar, balki boshqa soxa vakillari urolog va proktologlar oldidagi dolzarb muammoligini saqlab qolmoqda. Ko‘plab adabiyotlar ma‘lumotida keltirilishicha chanoq a‘zolar prolapsi uchrashi 28- 40% ni tashkil qiladi. Xorijiy manbalarda bu ko_ rsatgich bir buncha yuqori ya‘ni 31-50% ni tashkil qiladi. (4-3). Women’s Health Intiative Stady tekshirishlarida 16616 ta ayollar ichidan bachadon prolapsi - 14.2%, tsistotsele - 34,3%, rektotsele —18,6% ni tashkil qiladi. [2] Ko‘p xollarda POPQ (Pelvis Organ Prolapse Quantification) tasnifi bo‘yicha ayollar kasallikning III-IV darajasida tibbiy yordamga murojoat qilishadi. [1,2] Ko‘p xollarda kasallikning simtomsiz kechishi [9] (I-II darajasida) o‘z navbatida kasallikning asoratlari (tservitsit, endotservitsit, kolpit, uretrit) rivojlanishiga va bundan tashqari tsistotsele, rektotsele kabi bir qator salbiy oqibatlarga sabab bo‘ladi.

Janoq a‘zolari prolapsining xozirgi kunda radikal davolash usuli bu- jarroxlik amaliyoti bo‘lib, xozirgi kunda 300 dan ortiq jarroxlik amaliyotlari va ularning modifikatsiyalari ishlab chiqilgan. [6 7] Jarroxlik amaliyotida prolapsining retsidivini kamaytirish maqsadida xozirda keng qo‘llaniladigan usul bu bachadon ekstrpatsiyasi xisoblanib, bu jarroxlik amaliyotidan keyin xam qin cho‘ltogining prolapsi 6-12% kuzatilishi aniqlangan. [2]. Boshqa adabiyotlarda bu korsatgich 43% ni tashkil qiladi.

Shunday qilib, adabiyotlardan kelib chiqgan xolda, bachadon to_liq tushishi va qin

cho_ltog_ining prolapsi xozirgi kunda ginekologlar oldidagi dolzarb muammolardan biri bo_lib

qolmoqda. [9]. Jarrohlik davolashning ko_plab usullari u yoki bu turlari xususiy to_qimalar, sintetik materiallar qo_lanilganda jinsiy a‘zolar prolapsi va gisterektomiyadan keyingi qin choltoqi prolapsi retsidiwi kamaymaganligini ko‘rsatadi. O‘z navbvtida bizning qarashlarimiz shuni anglatadiki jinsiy a‘zolar prolapsi og_ir darajalarida va gisterektomiyadan keyingi qin cho_ltoqi prolapsini davolashda yangi xirurgik davo usullarini ishlab chiqish va bu usulning effektivligini oshirishni ishlab chiqish o‘z oldimizga maqsad qilib qo_ydik


Tadqiqot maqsadi: Ayollar jinsiy a‘zolari prolapsi retsidiwi va asoratlarini takomillashtirilgan operativ usul bilan davolash samaradorligini oshirish.

Tadqiqot usuli va materiali. Biz jinsiy prolarsi retsidiwi va asorati bilan 53 ta bemorni tekshirishga oldik. Ularning yoshi 45-65 yoshgacha tashkil etdi. Bemorlarga barcha tekshirish usullari o‘tkazildi, ularning anamnezi, umumiyl klinik va laborator tekshirishlar, jinsiy a‘zolar prolapsi darajasi,

kichik chanoq organlari UZI tekshiruvi, qo‘srimcha asoratlari, kolposkopiya, qin surtmasi bakteriologik va bakterioskopik tekshirishlar o‘tkazildi. Bundan tashqari birlamchi o‘tkazilgan jarroxlik amaliyotlar turlari va xajmi, o‘tkazilgan jarroxlikdan keyingi davri, va kuzatilgan asoratlari atroficha o‘rganildi va taxlil qilindi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi: Olingan natijalar shuni korsatadiki, genital prolaps qaytalanishi kuzatilgan bemorlarning POP-Q tasnifi bo‘yicha shikoyatlari o‘rganildi.

Residivlangan prolaps xarakteri



Rasmdan ko‘rinib turibdiki, asosan kasallikning asoratlari va klinikasi POP-Q tasnifi bo‘yicha III-IV darajasida yaqqol namoyon bo`lishi aniqlandi. Prolaps retsidivida jarayonning keying bosqichida ya‘ni og_ir darajalarida organlar va qin anatomiyasi va biotsenozi buzilishi natijasida qoshimcha asoratlар kolpit, qin shilliq

qavati trofik yaralari Bachadon —dekubitusl yarasi kuzatilishi aniqlandi. Bundan tashqari bemorlar kasallik tarixi organilganda o_tkazilgan birlamchi jarroxlik amaliyoti organildi. Taxlil natijalari shuni ko'rsatdiki bemorlarimizning anamnezidan 32,9% transvaginal bachadon amputatsiyasi va old kolporafiya, orqa kolpoperenioplastika o_tkazilgan, 24,50% old kolporafiya, orqa kolpoperenolevatoroplastika, 11,3% da o_rta kolporofiya, xozirgi kunda kuplap retsidi berishiga karamasdan bemorlarning 13,9% da bachadon ventrofiksasiyasi otkazilgan. Jarroxlik amaliyotidan keyingi qaytalanish davri qisqaligi ya'ni 1 yildan 6 yilgacha va yuqorida ko'rsatilgan shikoyat va asoratlarning u yoki bu belgilari bilan kechishi kuzatilgan. Barcha taxlil va tekshirishlardan

kelib chiqgan xolda biz o'zimizning jarroxlik amaliyotimizni taklif qildik. Jarroxlik amaliyoti xajmi: jinsiy a'zolar prolapsi takrorlanishida transvaginal gisterektomiyadan so'ng, qin old devoridan eski chandiqlar kesib olinadi. Qin oldingi devoriga bachadon yumoloq boylami orqa devoriga dumg_aza-bachadon boylami choltogi birgalikda aloxida uzlukliz «X» simon choklar bilan tikiladi. Natijada —bublikl formasiga ega mustaxkam karkaz xosil bo_ladi. Keyingi oldingi

kolporafiya va taktika orqa kolpoperineolevatoroplastika bilan tugallaniladi.

Xulosa: Zamonaviy adabiyotlar taxlili shuni ko'rsatdiki jinsiy a'zolar prolapsi xozirgi kunda ginekologiyaning dolzarb muammosi xisoblanadi. Shuni takidlash kerakki, jinsiy a'zolar prolapsining qaytalanishi bemorlarning 35% dan ko'progi takroran jarroxlik amaliyoti o'tkazishadi. Jarroxlik amaliyoti ustunligi shundan iboratki, bemorlar keyingi kundan o'rnidan turishadi. 3-4 kuni o'tirish va yurishga ruxsat beriladi. Jinsiy a'zolar prolapsida kuzatiladigan asoratlar 89%gakamayadi (kultit, infiltrat) Jarroxlik amaliyoti qo'llanilgan modifikatsiyada «X» simon choklar, uzlusiz choklardan ko'ra to'qimalarga kamroq ziyon yetkazadi ya'ni to'qimalarning oziqlanishi va tiklanishi yaxshilanadi. Shuni takidlash kerakki jarroxlik amaliyotidan so'ng 3 yil davomida jinsiy a'zolar prolapsi retsidiivi kuzatilmadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. III. K. Абдиева, Н. Р. Насимова Жинсий аъзолар пролапси бўлган аёлларда қин микробиоценози хусусият-
2. ларини ўрганиш // Доктор ахборотномаси, № 4 (97), 2020. С.133-138. DOI: 10.38095/2181-466X-2020931-55-60
3. Н. Р. Насимова, М. Ш. Шамсиева Метод хирургической коррекции пролапса гениталий различной степени
4. у женщин // Вестник врача, № 1 (93), 2020. С.55-60. DOI: 10.38095/2181-466X-2020931-55-60
5. Х. Ш. Шавкатов, Б. Б. Негмаджанов Бачадон ва қин девори пролапсини асорати ва рецидивини оператив
6. усул билан даволаш // Доктор ахборотномаси, № 2 (94), 2020. С.99-102. DOI: 10.38095/2181-466X-2020942-

7. 99-102
8. 4. Apokina A.N. Prognozirovaniye effektivnosti xirurgicheskoy korreksii prolapsa tazovых organov. Avtoref.
9. diss..kand. med.nauk.– Moskva, 2012
- 10.5. Aylamazyan E.K. Prolaps tazovых organov u jenщin: etiologiya, patogenez, prinsipy diagnostiki: posobiye dlya
- 11.vrachey. SPb.–2010
- 12.6. Buyanova S.N., Smolnova T.Yu., Ioseliani M.N., Kulikov V.F. K patogenezu oriщeniya i vypadeniya vnutrennix polovых organov // Vestn. Ros. assots akush.-gi-nekol. — 1998. — №1. — S. 77-79.
- 14.7. Gasparov A. S., Babicheva I. A., Dubinskaya Ye. D. i dr. Xirurgicheskoye lecheniye prolapsa tazovых organov //
- 15.Kazanskiy meditsinskiy jurnal. — 2014. — T. 95. — №3. — S. 341—347.
- 16.8. Hendrix S. L., Clark A., Nygaard I. et al. Pelvic organ prolapse in the Women»s Health Initiative: gravity and gravidity.
- 17.Am J Obstet Gynecol 2002;186(6):1160–6.
- 18.9. Krasnopol'skiy V. I., Buyanova S. N., Petrova V. D. Kombinirovannoye lecheniye bolnykh s opusheniyem i vipadeniyem
- 19.vnutrennix polovых organov i nederjaniyem mochi s primeneniem antistressovых texnologiy: Posobiye
- 20.dlya vrachey. — M., 2003. — 41 s.
- 21.10. Macher C.F, Qatawneh A.M., Dwer P.L. et al. Ab-dominal sacral colpopexy or vaginal sacrospinous colpopexy for
- 22.vaginal vault prolapse: a prospective randomized study // Am. J. Obstet. Gynecol. — 2004. — Vol. 190, N 1. — P.
- 23.20-26.
- 24.11. Negmadjanov B.B, Shavkatov X.Sh Ayollarda uchraydigan prolaps retsidivini jarroxlik amaliyotini optimallashtirish.
- 25.—Tibbiyotda yangi kuni 4(34) 2020 yil. St. 504-506
- 26.12. Phillips C.H, Anthony F, Benyon C. et al. Colla-gen metabolism in the uterosacral ligaments and vaginal skin in
- 27.women with uterine prolapse // BJOG. — 2006. — Vol. 113. — P. 39-46.